

3. Berilgan namunadan bosma Yy harfining bosh va kichik ko‘rinishini avval niqtalar ustidan so‘ng o‘zlari yozing.

4. So‘zlan niqtalar ustidan so‘ng mustaqil yozing.

5. Raqamlarni to‘g‘ri ketma-ketlikda qo‘yib, so‘zлarni toping.(kiyik, laylak, yelim)

3	4	2	5	1
Y	I	I	K	K

1	3	4	2	6	5
L	Y	L	A	K	A

2	1	3	5	4
E	U	L	M	I

6.Rasmni bo‘yang va ularning nomlarini kataklarga yozing.(uy, tuya)

Darsga yakun yasash:

-Qanday tovush bilan tanishdingiz?

-Mashg‘ulotda nimalarni eslab qoldingiz?

-Bugungi darsda sizga nima yangilik bo‘ldi?

-Qaysi topshiriqni bajarishga qiyaldingiz?

30-mavzu: [y] tovushi. Yy harfi yuzasidan amaliy topshiriqlar

Dars maqsadi:

- [y] tovushining talaffuzi va Yy harfining bosma shakli yuzasidan amaliy topshiriqlar bajaradilar;
- so‘zlardan [y] tovushining o‘rnini aniqlashni o‘rganadilar;
- so‘zni bo‘g‘inga bo‘lib, undagi tovushlar sonini aniqlaydilar;

Tayanch so‘zlar: boshqotirma, yo‘l harakati qoidalari, [y] tovushi ishtirokida so‘zlardan tovushlar sonini aniqlash chizmasi.

Didaktik materiallar: rasmi va bo‘g‘inli kartochkalar, kesma harflar. Yo‘l harakati qoidalariiga oid rasmlar.

Darsning borishi:

I.Kirish qismi (5 daqiqa)

Faollashtirish mashqi:

Kalendar : O‘quvchilardan bugungi kun sanasi so‘raladi.

Kim chaqqon mashqi: O‘qituvchi doskaga o‘tilgan barcha undosh harflarni yozadi.

O‘quvchilardan shu undoshlar ishtirokida biron bir harf qo‘sib bo‘g‘in hosil qilishni so‘raydi.

Asosiy qism (40 daqiqa)

1. Amaliy topshiriq bajarish: (5 daqiqa)

O'qituvchi kesma harflar yordamida y harfi ishtirokida 5 ta so'z hosil qilishni so'raydi.

Kesma harflaringiz yoramida o'rgangan harflarimiz bilan so'zlar tuzing. Tuzgan so'zlarinizni partadoshingizga o'qib bering.

[Y] tovushi. Y y harfi 30-dars

Rasmga qarang. Y harfi qatnashgan so'zlarni topib, ularga mos chizma chizing.

o'y - bo'y
oy - boy
oy - loy
oy - toy
oy - moy

o	a
i	u
o'	e
t	n
l	m
d	k
b	y

Kim odobli?
O-yi, Lay-lo kat-ta yo'l-da o'y-nay-di. Oy-din kat-ta yo'l-da o'y-na-may-di. "A-kam, u-kam bi-lan may-don-da o'y-nay-man", – dey-di u. O-yi, Oy-din o-dob-li-mi yo-ki Lay-lo o-dob-ll?

Rasmdagi xatolarni toping.

41

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

- Qanday so'zlar tuza oldingiz?
- Partadoshingiz qanday so'zlarni tuza oldi?
- Partadoshingiz tuzgan so'zlar orasidan qaysi birlari siz tuzgan so'zlar orasida yo'q?

2. Mavzuni mustahkamlash: (5 daqiqa)

Harflar lentasidagi harflar esga olinadi. O'qituvchi [y] tovushini so'zlar orasidan qanday aniqlashni tushuntiradi. Unli tovushlar to'siqqa uchramasligi, cho'ziq aytlishi va unli tovushlarni chizmada shartli ravishda qizil rangda belgilanishini, undosh tovushlar talaffuzda to'siqqa uchraydi, qisqa aytildi uni shartli ravishda ko'k rang bilan berilishi aytildi.

Doskada bir so'zni o'quvchilar bilan birga muhokama qiladi.

Yelim(rasmi)- bo'g'inga bo'linadi 2 bo'g'in, 1-bo'g'inda nechta tovush borligini aniqlaydi. 2 ta tovush. 2-bo'g'inda 3 ta tovush. Y harfining o'rni 1- katakda ekanligi aniqlanadi. Shu kataknini ko'k rangga bo'yaladi.

Darslik bilan ishlash: (20 daqiqa)

1. Darslikda berilgan rasm asosida y harfi qatnashgan so'zlar topiladi va bu so'zlar chizmasi doskada birgalikda chiziladi.

2. Oy so'zining boshiga bitta harf qo'shib hosil bo'lgan so'zlar o'qitiladi.

3. Doskaga ilingan Yo'l harakati qoidalari haqidagi rasmlar asosida kichik suhbat o'tkaziladi. Suhbatda yo'lida o'ynash, kesib o'tish kabi qoidalari eslatilishi, o'quvchilardan bu haqida nimalar bilishi so'raladi. Tavsiya etiladigan savollar.

1. Katta yo'lni qanday kesib o'tish kerak?
2. Bolalar yo'lni kesib o'tayotganlarida nimalariga rioya qilishlari kerak?
3. Bolalar qayerlarda o'ynashi mumkin emas?
4. Siz yashab turgan joyda hayfli yo'l bormi?
5. Bu yo'lda qanday harakatlanasiz?

4. "Kim odobli?" matni o`qitiladi.

– О-yi, Lay-lo kat-ta yo‘l-da о‘у-nay-di. Oy-din kat-ta yo‘l-da о‘у-na-may-di.
“А-кам, у-кам bi-lan may-don-da о‘у-nay-man”, – dey-di u. О-yi, Oy-din o-dob-li-mi yo-ki Lay-lo o-dob-li?

5. Darslikda berilgan rasmdagi xatolar aniqlanadi.

Daftар bilan ishslash: (10 daqqa)

1. Yashirin so`z boshqotirmasidagi berilgan so`zlarni toping va bo`sh kataklarga yozing. Nay, to`y, yil,may, moy, kuy, yel, loy.

2. Hayvonlar nomidan y tovushi ishtirok etganlarini topib, ko`rsatkich chizib belgilang.

Darsga yakun yasash:

-Qanday tovush bilan tanishdingiz?

-Mashg`ulotda nimalarni eslab qoldingiz?

-Amaliy mashqlardan qaysi birini siz o`zingiz mustaqil bajara oldingiz?